

BIN SIN SHE'RLARIDA BAIHUA TILINING POETIK IMKONIYATLARI: LINGVOPOETIK TAHLIL

Toshbekova Iroda Sobirjon qizi
Toshkent, O'zbekiston
irodaahmedova777@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada xitoylik shoira Bin Sin (冰心, 1900–1999)ning "Fanxing" (繁星, 1923) va "Chunshui" (春水, 1923) to'plamlari misolida baihua tilining poetik imkoniyatlari lingvopoetik jihatdan tahlil qilinadi. Baihua va klassik xitoy tili (wenyan) o'rtasidagi lingvistik farqlar, baihuaning leksik soddaлigi va sintaktik erkinligining she'riy matnda semantik boylik yaratish mexanizmi o'rganiladi. Tadqiqot ko'rsatadiki, Bin Sin she'riyatida baihua tili uchta asosiy poetik imkoniyatni ro'yobga chiqaradi: leksik ochiqlik orqali emotsional yaqinlik, sintaktik erkinlik orqali tabiiy ritm va og'zaki nutq inversiyasi, hamda so'zlashuv leksikasining semantik ko'p qatlamlilik kasb etishi. Shu tarzda baihua she'riyatda venjyanning estetik funksiyalarini to'liq bajarish qobiliyatiga ega ekanligini isbotlaydi.

Kalit so'zlar: baihua, wenyan, poetik imkoniyat, lingvopoetika, Bin Sin, leksik soddalik, sintaktik erkinlik, semantik zichlik, baihua harakati.

XX asr boshida xitoy adabiyotida sodir bo'lgan eng katta inqilob — klassik xitoy tili (wenyan / 文言) o'rniga oddiy xalq so'zlashuv tili, ya'ni baihuaning (白话) adabiy til sifatida tan olinishi — nafaqat ijtimoiy-madaniy, balki chuqur lingvistik ahamiyatga ega hodisadir. Baihua harakati 1919-yilgi To'rtinchi may harakati (五四运动) bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uni Hu Shi (胡适) va Chen Duxiu (陈独秀) kabi adiblar peshqadam sifatida olib bordi. Bu harakat nafaqat til o'zgarishi emas, balki xitoy madaniy identitetining qayta shakllanishi edi.

Baihua so'zlashuv tiliga asoslangan, grammatik jihatdan sodda, leksik jihatdan keng auditoriyaga tushunarli til hisoblanadi. Wenyan esa klassik xitoy adabiy tili bo'lib, u og'zaki nutqdan uzoqlashgan, ixcham va murakkab grammatik tuzilmalarga ega. Wang Yao ta'kidlaganidek, wenyan she'riyatda azaldan "yuqori madaniyat" belgisi sifatida qaralib, baihua esa quyi madaniyat elementi deb hisoblangan. Baihuani she'riy til sifatida qabul qildirish — bu aynan shu ierarxiyani ag'darish edi.

Bin Sin (冰心, 1900–1999) baihua she'riyatining eng yorqin namoyandasi sifatida e'tirof etiladi. Uning "Fanxing" (繁星, 1923) va "Chunshui" (春水, 1923) to'plamlari baihua tilining she'riyatda qanday poetik imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishi mumkinligini ko'rsatuvchi asosiy manba hisoblanadi. Chang va Owen ta'kidlaganidek, Bin Sin she'riyati baihuaning she'riy til sifatidagi qonuniyligini isbotlagan birinchi to'laqonli she'riy to'plam sifatida xitoy adabiyoti tarixida alohida o'rin egallaydi.[1]

O'zbek tilshunosligida baihua tilining poetik imkoniyatlarini Bin Sin she'riyati misolida lingvopoetik jihatdan o'rganish hali amalga oshirilmagan. Mavjud tadqiqotlar asosan adabiyotshunoslik va tarjima muammolari nuqtai nazaridan olib borilgan. Mazkur maqola baihuaning leksik, sintaktik va semantik

[1]Chang, K. S.; Owen, S. (Eds.). The Cambridge History of Chinese Literature. Vol. 2. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – P. 412.

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.



xususiyatlarini she'riy matn yaratishdagi roli jihatidan tahlil qilishni maqsad qiladi. Tadqiqot uchun asosiy material sifatida "Fanxing" va "Chunshui" to‘plamlaridagi she’rlar olingan.

BAIHUA VA WENYAN: LINGVISTIK FARQLAR VA SHE’RIYATDAGI AHAMIYATI

Baihua va wenyan o‘rtasidagi farqni to‘g'ri tushunish uchun ularning asosiy lingvistik xususiyatlarini solishtirish zarur. Wenyan tili uch asosiy xususiyat bilan tavsiflanadi: birinchidan, leksik ixchamlik — ko‘pincha bir yoki ikki ierogrif alohida mustaqil ma'noni bildiradi; ikkinchidan, grammatik ellipsis — ko‘makchi so‘zlar, bog'lovchilar va olmoshlar ko‘pincha tushirib qoldiriladi; uchinchidan, majburiy parallelizm — she’riy satrlarda tonal va leksik simmetriya qat’iy talab qilinadi. Yeh ta'kidlaganidek, wenyan she'riyatida har bir belgi shunchaki so‘z emas, balki madaniy va intertekstual ma'nolar yukini ko‘taruvchi semiotik birlikdir.[2]

Baihua esa buning aksidir: grammatik jihatdan to‘liq, og'zaki nutqqa yaqin, ko‘makchi so‘zlar (了, 的, 地, 得, 吧, 呢) va olmoshlar (我, 你, 他) faol qo‘llanadi. Predikativ tuzilmalar ancha ochiq va erkin, ritmik majburiyat yo‘q. Aynan shu xususiyatlar avvaliga wenyan tarafdorlarini baihuani she'riy til sifatida rad etishga olib kelgan: ularga ko‘ra, baihua "qo‘pol" va "chuqur m’nodan xoli" edi. Biroq Bin Sin she'riyati bu fikrni rad etdi — u baihuaning o‘ziga xos lingvistik xususiyatlarini poetik resurs sifatida ishlatishni ko‘rsatdi.

LEKSIK SODDALIK VA EMOTSIONAL YAQINLIK

Baihuaning birinchi va eng muhim poetik imkoniyati — leksik soddalik orqali emotsional yaqinlik yaratish. Wenyan leksikasi asrlar davomida madaniy elita vakillari tomonidan qo‘llanilgan holda yuqori stilistik qatlamga ko‘tarilgan, bu esa oddiy o‘quvchi uchun uning emotsional ta'sirini vositali, masofali qilgan. Baihua leksikasi esa kundalik so‘zlashuv tilidan to‘g'ridan-to‘g'ri olingan — bu so‘zlar o‘quvchi uchun birinchi tabiat.

Bin Sin she'riyatida leksik soddalik emotsional yaqinlikning asosiy mexanizmi sifatida ishlaydi. "Fanxing" №33 she'rida:

母亲呵！撇开你的忧愁，容我沉酣在你的怀里，只有你是我灵魂的安顿。

(Ona! Qo‘ying g'am-u iztirobni, bag'ringda uxlay — bering iznni. Faqat sizdir — mening ruhimga orom.)

Bu she'rda[7] 母亲呵！ (Ona!) murojaati, 怀里 (bag'irda), 灵魂的安顿 (ruhning maskani) — bular baihua leksikasining oddiy so‘zlari. Biroq shu sodda so‘zlar o‘quvchida darhol bevosita emotsional rezonans hosil qiladi: kimning ham onasi yo‘q? Bu universal tajriba baihua leksikasi orqali universal tilda ifodalanadi. Wenyan tilida xuddi shu mazmunni ifodalash mumkin edi, ammo u ancha "adabiy", ancha "masofali" bo‘lar edi. Baihua esa matnni o‘quvchining hayotiga olib kiradi.[8]

Leksik soddalikni chuqurroq tahlil qilish uchun "Fanxing" to‘plamidagi yadroviy leksemalarning tezlik tahlilini ko‘rsatish mumkin. Eng ko‘p uchraydigan 10 ta leksema: 我 (men, 164 marta), 你 (sen, 98 marta), 母亲 (ona, 89 marta), 海 (dengiz, 87 marta), 星 (yulduz, 83 marta), 爱 (mehr, 67 marta), 心 (yurak, 65 marta), 天 (osmon, 61 marta), 水 (suv, 54 marta), 梦 (tush, 52 marta). Bu leksemalarning barchasi bir yoki ikki bo‘g'inli, kundalik hayotda ishlatiladigan so‘zlar. Hech biri wenyan arxaizmlariga mansub emas. Shunday bo‘lsa-da, ular birgalikda nihoyatda keng semantik maydon — ona, tabiat, koinot, hissiyot, orzu — ni qamrab oladi.

[2] 冰心. 冰心全集·第一卷. – 上海: 商务印书馆, 1990. – 第 12 页 (繁星 №1).

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.

Xu Hongling Bin Sin she'riyatida baihua leksikasining "semantik ochiqlik" (语义开放性) xususiyatini alohida ta'kidlaydi: oddiy so‘zlar o‘quvchining individual tajribasi bilan qo‘shilganda yangi semantik qatlamlar hosil bo‘ladi.[9] Wenyan leksikasi ko‘pincha intertekstual izoh talab qiladi — antik adabiy manbalarni bilmasdan uni to‘liq anglash qiyin. Baihua esa "ochiq" — har bir o‘quvchi unga o‘z tajribasini olib kiradi. Bu poetik kommunikatsiyaning yangi modeli.

SINTAKTIK ERKINLIK VA TABIIY RITM

Baihuaning ikkinchi muhim poetik imkoniyati — sintaktik erkinlik orqali tabiiy ritm yaratish. Wenyan she'riyatida ritm qat'iy metrik qoidalar — juft-toq bo‘g'inlar almashinuvi, tonal pattern (平仄), qofiya — asosida qurilgan. Bu qoidalar she'rga musiqiylik bergan, ammo ayni paytda ifoda erkinligini cheklab, sun'iy inversiya va ellipsisni majburiy qilgan. Baihua she'riyatida esa bunday qat'iy metrik majburiyat yo‘q — ritm og'zaki nutqning tabiiy intonatsiyasidan kelib chiqadi.

Bin Sin bu imkoniyatdan mohirona foydalanadi. "Fanxing" №105 she'rida:

我在母亲的怀里，母亲在小舟里，小舟在月明的大海里。

(Men onam bag'rida, onam qayiq ichra, qayiq oy nuri to‘lgan dengiz ichra.)

Bu she'rda[10] ritm qofiya yoki metrik sxema orqali emas, balki sintaktik parallelizm — zanjirli 在...里 (ichida) konstruksiyasining takrorlanishi — orqali yaratiladi. Har bir satr oldingi satrning elementini o‘z ichiga oladi: men → ona bag'ri → qayiq → dengiz. Bu zanjirli tuzilma wenyan she'riyatida ham mavjud edi (parallelizm), ammo baihuada u yangi imkoniyat bilan boyidi: grammatik ko‘makchi 在...里 tabiiy va ravon oqimni ta'minlaydi. Jakobson ta'rifidagi ekvivalentlik prinsipi aynan shu shaklda namoyon bo‘ladi: sintaktik ekvivalentlik ritmik va semantik ekvivalentlikni bir vaqtda yaratadi.[3]

Baihuaning sintaktik erkinligi she'rda og'zaki nutqqa xos inversiyadan ham foydalanish imkonini beradi. "Chunshui" №127 she'rida:

清晓——静悄悄地走入园里，万有都在睡梦中呵！

(Tong saharda — sokin yurib kirdim bog' ichra, ko‘rdimki, har narsa uyquda.)

Bu satrda 静悄悄地 (mutlaq sokin tarzda) ravishi fe'ldan oldin keladi — bu og'zaki nutqning tabiiy tartibi. Wenyan she'riyatida bunday ravish ko‘pincha she'rga sig'dirish uchun o‘zgartirilishi yoki tushirib qoldirilishi kerak edi. Baihuada esa u o‘z tabiiy joyida turadi va shu orqali tovush-ma'no uyg'unligi — 静悄悄 so‘zining o‘zi ham ohang jihatdan sokin, yumshoq — yaratiladi. Leech ta'kidlaganidek, bunday og'zaki nutq inversiyasi "naturalness" (tabiiylik) effektini hosil qilib, o‘quvchini matnning organik qismiga aylantiradi.[4]

Sintaktik erkinlikning yana bir ko‘rinishi — satr uzunligidagi erkinlik. Wenyan she'riyatida satr uzunligi qat'iy belgilangan: 5 yoki 7 ieroglifli satrlar (五言、七言). Bin Sin she'rlarida esa satr uzunligi erkin: u 3 ta belgidan 15 tagacha bo‘lishi mumkin. Bu erkinlik she'rda nafas ritmini — insonning tabiiy nafas olish va berish tartibini — aks ettirishga imkon beradi. Qisqa satrlar — keskin, to‘satdan; uzun satrlar — oqimli, meditativ. Bu ritmik dinamika wenyan she'riyatida amalda yo‘q edi.

SO‘ZLASHUV LEKSIKASINING SEMANTIK KO‘P QATLAMLILIGI

[3] Jakobson, R. Closing Statement: Linguistics and Poetics. In: Sebeok, T. (ed.) Style in Language. – Cambridge: MIT Press, 1960. – P. 358.

[4] Leech, G. A Linguistic Guide to English Poetry. – London: Longman, 1969. – P. 57.

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.

Baihuaning uchinchi poetik imkoniyati — so‘zlashuv leksikasining she'riy kontekstda semantik ko‘p qatlamlilik kasb etishi. Bu imkoniyat dastlab wenyan tarafdorlari tomonidan rad etilgan: ularga ko‘ra, oddiy so‘zlar she'riy chuqurlikka ega bo‘lolmaydi. Bin Sin esa aksincha isbotladi.

"Chunshui" №85 she'rida:

我的朋友！倘若你忆起这一湖春水，要记住它原不是温柔，只是这般冰冷。

(Do‘stim! Agar eslasang bahor ko‘lini, yodingda tut — u mayin emas, balki sovuq.)

Bu she'rda **温柔** (yumshoqlik, muloyimlik) va **冰冷** (sovuqlik) so‘zlari kundalik baihua leksikasiga mansub. Biroq bu ikki so‘z she'riy kontekstda antonimik juftlik sifatida kelganda, ular bir vaqtda uch qatlamda ishlaydi: (1) bevosita ma'no — ko‘lning fizik harorati; (2) metaforik ma'no — hayot va munosabatlarning go‘zal ko‘rinishi ostidagi sovuq haqiqat; (3) pragmatik ma'no — lirik subyektning o‘quvchiga yo‘naltirilgan ogohlantirishи. Wenyan tili ham bunday ko‘p qatlamlilikni yarata olardi, ammo faqat tanish intertekstual murojaat orqali. Baihua esa buni bevosita, izohsiz amalga oshiradi.

"Fanxing" №10 she'rida so‘zlashuv leksikasining semantik ko‘p qatlamliligi yanada yorqin namoyon bo‘ladi:

嫩绿的芽儿，和青年说：300c **发展你自己！**300d
淡白的花儿，和青年说：300c **贡献你自己！**300d
深红的果儿，和青年说：300c **牺牲你自己！**300d

Bu she'rda **嫩绿** (yangi yashil), **淡白** (mayin oq), **深红** (to‘q qizil) rang epitetlari va **发展** (rivojlantirish), **贡献** (bag'ishlash), **牺牲** (fidoyilik) fe'llari — bular ham baihua leksikasining oddiy so‘zlari. Biroq parallel sintaktik tuzilmada kelganda, ular yoshlik, balog'at va fidoyilik zanjirini ifodalaydi. Xu Hongling ta'kidlaganidek, bu she'rda baihua leksikasining rang semantikasi falsafiy mazmunni tashuvchi semiotik tizimga aylanadi.[5]

Li Ming Bin Sin she'riyatidagi baihua leksikasini o‘rganib, quyidagi muhim xulosaga keladi: Bin Sin so‘zlashuv tilining so‘zlarini she'riy kontekstda "qayta ma'nolash" (语义**再造**) usulini qo‘llaydi — ya'ni oddiy so‘z she'riy tuzilma ichida yangi semantik qatlam hosil qiladi.[6] Bu hodisa wenyan she'riyatida ham mavjud edi, ammo u asosiy ma'noni adabiy an'ana orqali o‘zgartirish yo‘li bilan amalga oshirilardi. Baihuada esa "qayta ma'nolash" sintagmatik kontekst — parallel tuzilma, inversiya, ellipsis — orqali yuzaga keladi. Bu yangi poetik mexanizm baihuaning eng muhim ixtirosidir.

BAIHUA SHE'RIYATINING WENYAN BILAN QIYOSIY TAHLILI

Baihua va wenyan: mos va farqli jihatlar

Baihua va wenyan she'riyatining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ikki til bir-birini to‘ldiradigan, lekin turli poetik imkoniyatlarni ro‘yobga chiqaradigan tizimlardir. Wenyan she'riyatining kuchli tomoni — semiotik zichlik: kam belgi orqali ko‘p ma'no. Baihuaning kuchli tomoni — kommunikativ ochiqlik: ko‘p o‘quvchiga yaqin til orqali universal emotsiyani ifodalash.

Chang va Owen ta'kidlaganidek, XX asr boshida baihua she'riyatning rivojlanishi wenyan an'anasini yo‘q qilmadi — balki uni yangiladi va kengaytirdi. Bin Sin she'riyatida bu ikki an'ananing uzviy bog'liqligi yaqqol ko‘rinadi. U baihua leksikasi va sintaksisini ishlatadi, ammo wenyan she'riyatining asosiy strukturaviy tamoyillarini — parallelizm, obrazlilik, zichlik — saqlab qoladi. Natijada baihua

[5] 徐宏玲 [Xu Hongling]. 修辞学视野下的冰心诗歌意象研究. – 厦门: 厦门大学出版社, 2015. – 第 141 页.

[6] 李明 [Li Ming]. 冰心文学思想研究. – 上海: 复旦大学出版社, 2009. – 第 121 页.

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.

she'riyati wenyan an'anasining merosxo‘ri sifatida, ammo yangi auditoriya uchun yangi til vositalari bilan ishlaydi.

Baihuaning she'riy legitimligi: Bin Sin hissasi

Bin Sin she'riyatining baihua tarixi uchun ahamiyati nafaqat til imkoniyatlarini ko‘rsatishida, balki baihuaning she'riy legitimligini tarixiy jihatdan tasdiqlashida. Yeh ta'kidlaganidek, Bin Sin "Fanxing" va "Chunshui" to‘plamlari bilan baihuada yozilgan she'rlarning nafaqat tarqalishi, balki estetik e'tirofga sazovor bo‘lishi mumkinligini isbotladi.[7]

Bu legitimizatsiya uch yo‘nalishda amalga oshdi. Birinchidan, leksik jihatdan: Bin Sin oddiy so‘zlarning she'riy imkoniyatini ko‘rsatdi — ular intertekstual izoh talab qilmasdan ham chuqur ma'no tashiy oladi. Ikkinchidan, sintaktik jihatdan: u erkin satr uzunligi va tabiiy intonatsiyaning wenyan metrikasidan kam bo‘lmagan ritmik imkoniyatga ega ekanini ko‘rsatdi. Uchinchidan, semantik jihatdan: baihua so‘zlari she'riy kontekstda "qayta ma'nolash" orqali wenyan she'riyatiga xos ko‘p qatlamlilikka erishishi mumkinligini isbotladi.

Shu uch yo‘nalishda erishilgan natijalar birgalikda baihuaning she'riy til sifatidagi to‘liq qobiliyatini tasdiqlab, keyingi baihua shoirlari — Xu Zhimo, Wen Yiduo, Dai Wangshu — uchun mustahkam poetik poydevor yaratdi. Bin Sin she'riyatisiz baihua harakati shu darajada tez va keng ko‘lamda g'alaba qozonolmas edi.

Baihua she’riyatida ritm masalasi alohida o’rganishni talab qiladi. Wenyan she’riyatida ritmni metrik tizim ta’minlagan bo’lsa, baihuada u semantik va sintaktik vositalar orqali yaratiladi. Bin Sin she’riyatida ritmning asosiy yaratuvchilari: (1) parallel sintaktik tuzilmalarning takrorlanishi; (2) bir xil grammatik ko’rsatkichlarning ketma-ket qo’l lanishi; (3) satr chegarasidagi to’xtam va ohang ko’tarilishi; (4) leksemalar hajmidagi muvozanat. Bu to’rtta omilning birgalikdagi ta’siri baihua she’rlariga metrikasiz ham ritmik uyg’unlik beradi. “Fanxing” to’plamidagi she’rlarning ko’pchiligida ushbu ritmik mexanizm yaqqol seziladi: o’quvchi she’rni ovoz chiqarmasdan o‘qiganda ham uning musiqiyligini his qiladi — bu baihua ritmining wenyan ritmidan farqli, lekin undan kam bo’lmagan kuchli tomonini ko‘rsatadi.

Baihua she’riyatida obrazlilik (imagery) xususiyati wenyan bilan qiyosiy jihatdan ham alohida ahamiyatga ega. Wenyan she’riyatida obraz ko’pincha klassik adabiyot pretsedentiga asoslanadi: o’quvchi bu obrazni tushunish uchun klassik matnni bilishi kerak. Baihua she’riyatida esa obraz bevosita — tabiat, kundalik hayot, shaxsiy kechinma — dan olinadi. Bin Sin she’riyatida yulduz, dengiz, bahor suvi, ona — bu obrazlar klassik ma’lumotsiz ham universal ta’si rga ega. Shu “ochiqligi” bilan baihua obrazlari kengroq auditoriyaga yetib boradi va shaxsiy hamfikrlik — “bu meniki ham” degan his — uyg’otadi. Liu Lydia He ta’idlaganidek, aynan shu omil baihua she’riyatini milliy adabiy harakat uchun eng qulay vosita qildi: u elita uchun emas, barcha uchun yozilgan.

Bin Sin she’riyatida baihuaning poetik imkoniyatlari she’riy nutqning dialogikligi jihatdan ham namoyon bo’ladi. Wenyan she’riyatida lirik subyekt odatda tabiat kuzatuvchisi, falsafiy mushohidachi sifatida distansiyalashgan ohangda namoyon bo’ladi. Baihua esa og’zaki nutq tabiatidan kelib chiqqanligi sababli she’rda dialogik ohangni tabiiy tarzda olib kiradi. “Fanxing” va “Chunshui” to’plamlarida 母亲呢! (Ona!), 我的朋友 (Do‘stim) kabi murojaatlar she’rga suhbat xarakterini beradi. Bu xarakter o’quvchini passiv qabul qiluvchidan faol suhbatdoshga aylantiradi — baihuaning eng noyob poetik erishuvilaridan biri.

[7] Yeh, Michelle. Modern Chinese Poetry: Theory and Practice since 1917. – New Haven: Yale University Press, 1991. – P. 23.

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.



Baihuaning poetik imkoniyatlarini baholashda tarixiy kontekstni unutmaslik zarur. Chang va Owen ta'idlaganidek, XX asr boshida baihua she'riyatini yozgan shoirlar wenyan she'riyatidan mutlaqo voz kechmagan — ko'pchiligi parallel ravishda ikki tilda yozgan. Bin Sin ham klassik xitoy adabiyotini mukammal bilgan. Shu sababli uning baihua she'rlaridagi parallelizm, obrazlilik va semantik zichlik — bular wenyan poetikasining baihua tiliga moslashgan ko'rinishlari. Bu esa baihuaning she'riy imkoniyatlarini wenyan an'anasidan alohida emas, balki uning davomi va yangilanishi sifatida ko'rish zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqot Bin Sin she'riyati misolida baihua tilining poetik imkoniyatlarini lingvopoetik jihatdan tahlil qilib, uch asosiy xulosaga keldi.

Birinchidan, baihuaning leksik soddaлigi emotsional yaqinlikning asosiy mexanizmi sifatida ishlaydi. Kundalik so'zlashuv tilidan olingan leksemalar — **母** 亲 (ona), 怀 **里** (bag'irda), **海** (dengiz) — o'quvchida bevosita emotsional rezonans hosil qiladi, chunki ular intertekstual bilim talab qilmasdan, universal insoniy tajriba bilan bog'liq. Bu baihuaning wenyan oldidagi asosiy afzalligi: she'r tor doira uchun emas, barcha uchun.

Ikkinchidan, baihuaning sintaktik erkinligi tabiiy ritm va og'zaki nutq intonatsiyasini she'riy tuzilmaga olib kirish imkonini beradi. Satr uzunligidagi erkinlik, grammatik ko'makchilarning to'liq qo'llanishi va parallel sintaktik konstruksiyalar birgalikda wenyan metrikasidan kam bo'lmagan, ammo boshqacha tabiatdagi ritmik tuzilma yaratadi. Bu ritm — o'quvchining nafas ritmiga moslashuvchi, uni she'r oqimiga sudrab boruvchi ritm.

Uchinchidan, baihua so'zlashuv leksikasi she'riy kontekstda "qayta ma'nolash" mexanizmi orqali semantik ko'p qatlamlilikka erishadi. Rang epitetlari falsafiy zanjir tashuvchisiga, oddiy so'zlar antitezis va metafora vositasiga, kundalik murojaat esa universal emotsional ifodaga aylanadi. Bu mexanizm baihuaning she'riy imkoniyatlarini wenyan bilan teng qo'yadi.

Ushbu uch imkoniyatning Bin Sin she'riyatida birgalikda namoyon bo'lishi baihuaning she'riy til sifatidagi to'liq legitim ekanligini isbotladi va keyingi avlod baihua shoirlari uchun poydevor yaratdi. o'zbek tilshunosligida xitoy she'riyatini lingvopoetik jihatdan o'rganishda baihua tilining poetik mexanizmlarini hisobga olish metodologik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 冰心. 冰心全集·第一卷. – 上海: 商务印书馆, 1990. – 356 页.
2. 王瑶. 中国新文学史稿. – 北京: 人民文学出版社, 1982. – 561 页.
3. 李明. 冰心文学思想研究. – 上海: 复旦大学出版社, 2009. – 285 页.
4. 徐宏玲. 修辞学视野下的冰心诗歌意象研究. – 厦门: 厦门大学出版社, 2015. – 216 页.
5. Chang, K. S.; Owen, S. (Eds.). The Cambridge History of Chinese Literature. Vol. 2. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 812 p.
6. Jakobson, R. Closing Statement: Linguistics and Poetics. In: Sebeok, T. (ed.) Style in Language. – Cambridge: MIT Press, 1960. – P. 350–377.
7. Leech, G. A Linguistic Guide to English Poetry. – London: Longman, 1969. – 256 p.
8. Liu, Lydia He. Translingual Practice: Literature, National Culture, and Translated Modernity — China, 1900–1937. – Stanford: Stanford University Press, 1995. – 382 p.
9. Yeh, Michelle. Modern Chinese Poetry: Theory and Practice since 1917. – New Haven: Yale University Press, 1991. – 312 p.

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.